

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-maxsus
son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ S/1 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Алимджанов Бахтиёр Абдихакимович</i> «НА ЭТОМ СЪЕЗДЕ ИДЕЙНОМУ РАЗБРОДУ НУЖНО ПОЛОЖИТЬ КОНЕЦ», ИЛИ КАК СОЮЗ АРХИТЕКТОРОВ УЗБЕКИСТАНА НАЧАЛ МЫСЛИТЬ	11-17
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDA OG'IR SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	18-21
<i>Muminov Azizbek Ziyoviddinovich</i> JIZZAX VILOYATI JOYLASHGAN TABIIY OBYEKT LARNING TARIXIY-GEOGRAFIK TASNIFI VA TURISTIK SALOHİYATI	22-27
<i>Ne'matov Xumoyun To'liqin o'g'li</i> SHOHRUX MIRZO VA USMONIYLAR O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR TARIXI	28-33
<i>Khudoyorov Noyibjon Maripjonovich, Ruziboev Samandarbek Sobirjon o'g'li</i> THE POLICY OF DEKULAKIZATION AND CONFISCATION OF PEASANT HOUSEHOLDS IN KAZAKHSTAN, 1929–1933.....	34-43
<i>Шамшетдинова Дилафруза Исмайыловна</i> ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ПРОГРЕСС И ТРАНСФОРМАЦИЯ КУЛИНАРНЫХ ТРАДИЦИЙ В СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ КАРАКАЛПАКСТАНА (1960-1980 ГГ.).....	44-48

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Kasimova Gulyar Axmatovna, Xaydarova Durdona Shuxratjon qizi</i> DAVLAT TIBBIY SUG'URTASI MEXANIZMIDA DORI-DARMON XARIDLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	49-56
<i>Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li</i> AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINI RIVOJLANTIRISHNING KO'P OMILLI EKONOMETRIK MODEL: OLS VA ARDL TAQQOSLASH	57-64

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Tashanov Abduxoliq</i> BUZG'UNCHI G'OYALARINING IJTIMOIIY-SIYOSIY VA AXLOQIY MUAMMOLARI	65-71
<i>Jo'rayev Ahmad Muhammadiyevich</i> TASAVVUF TA'LIMOTIDA DINIY BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIK MASALALARI	72-78
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUFNING FALSAFIY JIHATLARI XUSUSIDA.....	79-84
<i>Ibraximova Dilorom Saloydinovna</i> RAQAMLI MUHITDA ESTETIK IDROKNING XUSUSIYATLARI.....	85-88
<i>Muxammadiyeva Oliyana Narzullayevna</i> OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASH KONSEPSIYASI - OILA VA JAMIYAT IJTIMOIY BARQARORLIGINING MEZONI.....	89-92

<i>Matchanova Barno</i>	
MAFKURA VA MILLIY MAFKURA TUSHUNCHALARI:	
MAZMUN-MOHİYATI VA IJTIMOİY FUNKSIYALARI.....	93-98
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i>	
BAG'RIKENGLIK G'OYASINING TASAVVUFİY-FALSAFIY TAHLILI	
(Maxdumi A'zamning "Risolai tanbeh ul-ulamo" asari asosida).....	99-104
<i>Raxmatov Alisher Obidovich</i>	
IJTIMOİY FALSAFADA INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	105-108
<i>O'sarkulov Oybek Murodilovich</i>	
MILLIY IDENTIKLIKNING TRANSFORMATSIYASI VA IJTIMOİY INTEGRATSIYA:	
O'ZBEKISTONDAGI KOREYS DIASPORASI TAJRIBASI.....	109-115
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i>	
VOLTERNING "BAG'RIKENGLIK HAQIDA" ASARIDA JAN KALASNING QATL	
ETILISHI VA UNING OQIBATLARINI AKS ETTIRILISHI	116-121
<i>Shadmonova Zebiniso Amrulloevna</i>	
OILA SHAXS KAMOLOTINING ASOSIY IJTIMOİY MUHITI VA JAMIYAT	
BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA.....	122-126
<i>Idiboyev Abror Jamolovich</i>	
JAMIYAT IJTIMOİY-MA'NAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA - YOSHLAR	
HUQUQIY TARBIYASINING O'RNI	127-130
<i>Ahmadjonov To'liqinbek Akramjon o'g'li</i>	
RAQAMLI OLAMNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI.....	131-136
<i>Sodiqov Islombek Otabek o'g'li</i>	
RAQAMLI MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	137-141
<i>Abdurahimov Ravshanbek O'ktam o'g'li</i>	
HUQUQIY DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH SHAROITIDA YOSHLAR HUQUQIY	
ONGINING SHAKLLANISH OMILLARI	142-146
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Duvlaeva Nozigul Xolmuxammat qizi</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK MATNLARIDA STILISTIK TASVIR VOSITALARI	147-151
<i>Зикруллаева Хусния Бахтияровна</i>	
СТРУКТУРА, ПРОИСХОЖДЕНИЕ И НОРМАТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ	
ЗАИМСТВОВАННЫХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОМ	
НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ.....	152-156
<i>Turdiyeva Dilorom Soliyevna</i>	
PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR INCLUSIVE LEARNING	157-162
<i>Eshmurotov Umidjon Temurovich</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI AFORIZMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	163-167
<i>Avlayeva Saida Bozorovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA COVID-19 PANDEMIYASI SHAROITIDA	
SHAKLLANGAN KISHILAR JAMOALARINI IFODALOVCHI NEOLOGIZMLAR.....	168-172
<i>Ubaydullaeva Dilfuza Akmal qizi</i>	
JURNALISTLARNI TAYYORLASHDA NUTQ MADANIYATI KOMPETENSIYALARINING	
STRUKTURASI	173-181

<i>Alimova Shaxnoza Yaxshiboyevna</i> ASSOTSIIATIV TAJRIBA PSIXOLINGVISTIKA USULI SIFATIDA	182-187
<i>Xudayberganov Nizomaddin Uktambay o'g'li, Mansurova Shaxinabonu Najmiddin qizi</i> O'ZBEK TILIDA SON VA SIFAT SO'Z TURKUMLARINI POS TEGGLASH ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH TAMOIYILLARI	188-193
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Абдуллаева Дильдора Эльмуродовна</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СТАРТАП ПРОЕКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН НА ПРИМЕРЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКСЕЛЕРАТОРОВ И ИНКУБАТОРОВ.....	194-198
<i>Fayzullayeva Shaxlo Jumanioz qizi</i> THEORETICAL AND LEGAL ASPECTS OF INCLUSION OF COPYRIGHT OBJECTS IN INTERNATIONAL TRADE.....	199-204
<i>Qalandarov Aminjon Amondullayevich</i> KORPORATSIYALARDA AFFILLANGAN SHAXSLAR INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA TARTIBGA SOLINISHI	205-212
<i>Uralov Sarbon Sardorovich</i> JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIKDA VIDEOKONFERENSALOQA ORQALI TERGOV HARAKATLARINI TARTIBGA SOLISHNING UMUMIY SHARTLARI	213-218
<i>Xolmirzayev Muhsin Shavqiddin o'g'li</i> KRIMINOLOGIK PROGNOZLASHDA ANIQ FANLAR VA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARI YUTUQLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	219-225
<i>Dilboboyev Nozimbek</i> XORIJIY (CHET EL) VA MAHALLIY (MILLIY) INVESTITSIYA TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY TAVSIFI, ULARNING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	226-232
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	233-240
<i>Asadov Shahridin Faxriddin o'g'li</i> FUQAROLIK HUQUQIDA XIZMATLARNING HUQUQIY TABIATI: KONSALTING XIZMATLARI MISOLIDA.....	241-243
<i>Абдужонпоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> НЕСАНКЦИОНИРОВАННЫЙ ДОСТУП И ХИЩЕНИЕ ДЕНЕЖНЫХ СРЕДСТВ С ПЛАСТИКОВЫХ КАРТ: УГРОЗЫ, МОДЕЛИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ.....	244-253
<i>Хасанов Турсунпулат Шавкатжон ўғли</i> МЕЖДУ АЛГОРИТМОМ И ЗАКОНОМ: ПРОБЛЕМА ПРАВОВОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	254-259
<i>Kadirova Moxigul Xamitovna</i> ZAMONAVIY DAVLAT BOSHQARUVI VA ADOLATLI SUD-HUQUQ TIZIMI	260-262
<i>Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna</i> UCHINCHI RENESSANS SHAROITIDA VATANPARVARLIK G'OYASINING MA'NAVIY-HUQUQIY MOHIYATI (O'zbekiston tajribasi va xorijiy yondashuvlar qiyosida).....	263-269

<i>Shagilov Pulatbek Koptleuovich</i> JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TAJOVUZ QILUVCHI HUQUQBUZARLIKLARGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLARINING TAJRIBASI TAXLILI	270-276
<i>Kubaeva Ismigul Farkhod qizi</i> PARTY AUTONOMY VS CONSUMER PROTECTION IN INTERNATIONAL E-COMMERCE: THE CASE OF UZBEKISTAN IN COMPARATIVE PERSPECTIVE	277-283
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> ПОНУЖДЕНИЕ ЛИЦА К ВСТУПЛЕНИЮ В ПОЛОВУЮ СВЯЗЬ: ПРАВОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ОБЪЕКТИВНОЙ СТОРОНЫ ПРЕСТУПЛЕНИЯ.....	284-295
<i>Toshpo'latov Islom Otavulla o'g'li</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KADRLAR BILAN ISHLASH SIYOSATIDA MA'NAVIY- MA'RIFIY ISHLAR VA UNI ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMIGA TA'SIRI	296-301
<i>Аллашова Шийринай Турсынбаевна, Каримова Мадина Мирзаджоновна</i> ВИКТИМНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ЖЕРТВ БЫТОВОЙ ПРЕСТУПНОСТИ И ЕГО ПРОФИЛАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ	302-307
<i>Lutfullayeva Feruza Boboqulovna</i> HUQUQIY DAVLAT KONSEPSIYASINING ZAMONAVIY NAZARIY YONDASHUVLARI	308-312
<i>Abdugaffarov Davronbek Dilshod o'g'li</i> SHARTNOMALARNI AMALGA OSHIRISH USTIDAN SAMARALI PARLAMENT NAZORATI: O'ZBEKISTONDA XALQARO TIJORAT SHARTNOMALARIDA TARAFLARNING ERK MUXTORIYATINI KUCHAYTIRISH.....	313-317
<i>Jalilov Ravshanjon Abdukayumovich</i> INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING NOQONUNIY AYLANMASI: JINOIY-HUQUQIY VA QIYOSIY TAHLIL	318-329
<i>Muxtorov Muhammad Amin Mirkomil o'g'li</i> MULK HUQUQINI MUHOFAZA QILISH ICHKI ISHLAR ORGANLARINING FAOLIYATI.....	330-337
<i>Karimov Ulugbek Hakimjonovich</i> LEGAL FOUNDATIONS OF PROSECUTORIAL SUPERVISION IN ENSURING THE ALLOCATION, USE, AND PROTECTION OF LAND PLOTS IN THE AGRARIAN SECTOR OF UZBEKISTAN	338-343
<i>Mirabdullayev Maqsudjon Mahmudjon o'g'li</i> MASHINALI O'QITISH USULLARI ASOSIDA XOSTNING XAVFSIZLIGINI BAHOLASH, MODEL VA ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH.....	344-349
<i>Utebaev Salamat Maqsetbay o'g'li, Dauletbaeva Aynur Baxramovna</i> OILAGA QARSHI JINOYATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING OLDINI OLISH.....	350-354
<i>Tillayev Ikrom Rustamjonovich</i> HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI BELGILAB BERUVCHI UMUMIY VA SOHAVIY-HUQUQIY HUJJATLAR TAHLILI	355-362
<i>Xoshimova Nilufar Zafarjon qizi</i> O'ZBEKISTONDA MEHNAT MUNOSABATLARIDA MIGRATSIYA MUNOSABATLARI.....	363-366

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Rahmonova Nilufar Najmiddin qizi BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI FORSAYT TADQIQOT METODLARI ASOSIDA KREATIV KOMPETENSIYALARI TA'LIM TRAYEKTORIYASINI TASHKIL ETISH	367-371
<i>Abdurasulova Dilrabo Tolkunjon qizi</i> KOMPARATIVISTIKISTIK YONDASHUV TALABALARNING MADANIYATLARARO KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSI SIFATIDA.....	372-380
<i>Таджиходжаева Эльвира Рашидовна</i> ЦИФРОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ НЕПРОФИЛЬНЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ.....	381-387
<i>Ravshanova Gulnoza Burxonovna</i> 5-SINF O'QUVCHILARINING ANTROPOMETRIK TOTAL KO'RSATKICHLARINI O'RGANISH BO'YICHA TADQIQOT BOSHIDA OLINGAN NATIJALAR TAHLILI.....	388-393
<i>Mirzaakhmedova Makhliyo Yuldashevna</i> THE IMPACT OF AUTHENTIC MATERIALS ON TEACHING BUSINESS WRITING SKILLS TO ESP STUDENTS	394-400

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

FEATURES OF CRIMES AGAINST THE FAMILY AND THEIR PREVENTION

Utebaev Salamat Makhsetbay ugli

Assistant of Karakalpak State
University named after Berdakh

Dauletbaeva Aynur Bakhramovna

3rd year student of the Faculty of Law of Karakalpak State
University named after Berdakh

Abstract. Through this article, you can learn about family, crimes against the family, administrative prejudice, voluntary non-payment by a person obligated to provide material support by parents or children, their subject, liability for leaving a child unsupervised in foreign territory, as well as what norms are established in the Spanish Criminal Code regarding crimes against the family and how to prevent these crimes.

Keywords: family, crime, administrative offense, preclusion, sanction, material support, minor, parent, abandonment.

OILAGA QARSHI JINOYATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING OLDINI OLISH

Utebaev Salamat Maqsetbay o'g'li

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti assistenti
E-mail: salamatutebaev232@gmail.com

Dauletbaeva Aynur Baxramovna

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
yuridika fakulteti 3-bosqich talabasi
E-mail: dawletbaevaaynur0@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola orqali siz oila, oilaga qarshi jinoyatlar, ma'muriy preyuditsiya haqida, ota-onalari tomonidan yoki farzandlari tomonidan umumiy qilib aytganda moddiy ta'minot to'lash majburiyati yuklatilgan shaxsning o'z ixtiyori bilan to'lamasligi, jinoyatning subyekti, bolaning chet el hududida nazoratsiz qoldirilganligi uchun javobgarlik haqida, shuningdek, Ispaniya Jinoyat Kodeksida oilaga qarshi jinoyatlar haqida qanday normalar belgilanganligi va ushbu jinoyatlarning oldini olish haqida bilib olishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: oila, jinoyat, ma'muriy huquqbuzarlik, preyuditsiya, sanksiya, moddiy ta'minot, voyaga yetmagan, ota-ona, nazoratsiz qoldirish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N55>

Mustaqillik davrlaridan beri 30 yildan ortiq vaqt o'tdi. Shu kunga qadar yetib kelishimiz uchun qanchadan-qancha oqil, dono, mard va jasur insonlar xizmat qildi. Xo'sh bu dovyurak, ziyrak insonlar qayerda yetishib chiqadi? Bu maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta ta'limdan oldin ta'lim-tarbiya oladigan joyimiz — oiladan. Oilada kichkinaligimizdan boshlab berilgan ijobiy tahsil natijasida shunday ajoyib kunlarga yetamiz. Oila-bu jamiyatimizning asosiy qismi hisoblanib, bir-biriga qarindoshlik munosabatlar bilan bog'langan shaxslar ya'ni ota-onalar,

farzandlar va aka-uka, opa-singil singarilar guruhi bo'lib, ular birgalikda yashaydilar, bir-birini moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi, yordam beradi, ma'naviy, oilaviy qadriyatlarni o'rgatadi va milliy an'analarni kelajak avlodga yetkazadi. Oila nafaqat shaxsiy hayotda, jamiyatda ham muhim rol tutadi, uning barqarorligini ta'minlash jamiyat barqarorligini ta'minlaydi va farzandlarning barkamol shaxs bo'lib kamol topishida asosiy rol o'ynaydi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning 16-moddasiga muvofiq "Nikohdan o'tayotgan har ikki tomonning erkin va to'liq roziligi asosidagina nikoh tuzilishi mumkin. Oila jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasi sanaladi va jamiyat hamda davlat tomonidan himoya qilinishga haqli."-degan xalqaro qoidalar belgilab berilgan.

Konstitutsiyamizning 76-moddasida "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi." –, deb belgilangan [1]. Bu esa oila va oilaviy qadriyatlarining mamlakatimiz tomonidan muhofaza etilishini va konstitutsiyaviy normalarning xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirilayotganligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2018-yilning 19-20-yanvar kunlari Surxondaryo viloyatiga borgan vaqtida qilgan bayonotida "Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo'lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi." –, deb ta'kidlab o'tgan edi [2].

O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining 96-moddasida ota-ona voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berishi shart deb belgilangan. Agarda ushbu majburiyatni ixtiyoriy tarzda bajarmagan taqdirda ta'minot berish majburiyati yuklangan shaxs javobgarlikka tortiladi.

Oila va uning tinchligini xavfsizligini ta'minlash bo'yicha bir qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramasdan, ijtimoiy hayotda uni buzish holatlari ham uchrab turadi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 474-moddasi "Voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash"—, deb nomlanib, voyaga yetmagan shaxslarni yoxud mehnat qobiliyatiga ega bo'lmagan shaxslarni moddiy ta'minlash majburiyati yuklangan shaxslarning sud tomonidan qabul qilingan hal qiluv qarori yoki sud buyrug'i bo'lishiga qaramasdan moddiy ta'minotni ikki oydan ortiq muddat mobaynida to'lamaslik, — o'n besh sutka muddatga ma'muriy qamoqqa olishga yoki bir yuz yigirma soatgacha haq to'lanadigan jamoat ishlariga majburiy ravishda jalb etishga yoxud ushbu Kodeksga muvofiq ma'muriy jazolarning mazkur turlari qo'llanilishi mumkin bo'lmagan shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi [3]. Ushbu moddaning ikkinchi qismida "birinchi marta huquqbuzarlik sodir etgan shaxs, agar u ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rish jarayonida aliment majburiyatlari bo'yicha qarzdorlikni ixtiyoriy ravishda to'lagan bo'lsa, javobgarlikdan ozod etiladi." –, deb belgilangan. Bundan shuni ko'rishimiz mumkinki, ya'ni moddiy ta'minot to'lashdan bo'yin tovlagan shaxslar javobgarligini belgilovchi qoidalar o'zida insoniylik va adolat kabi prinsiplarni aks ettiradi. Chunki, birinchidan, moddiy ta'minot to'lash majburiyati yuklangan shaxs o'z majburiyatini qonunda belgilagan muddatlarda bajarishdan

bosh tortgan hollarda ham u darhol javobgarlikka tortilmaydi va majburiyatini bajarishi uchun qo'shimcha ikki oy muddat vaqt beriladi. Ikkinchidan, u bu huquqbuzarlikni birinchi marta sodir etgan bo'lib, ishni ma'muriy tartibda ko'rib chiqish jarayonida yuzaga kelgan qarzдорlikni o'z ixtiyori bilan to'lasa javobgarlikdan ozod etilishi belgilangan.

Agar ushbu ma'muriy javobgarlikka tortilgan shaxs ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etib ma'muriy huquqbuzarlik qo'llanilgan vaqtdan boshlab bir yil ichida yana takroran sodir etsa mazkur noqonuniy qilmishi endi ma'muriy huquqbuzarlik sifatida kvalifikatsiya etilmaydi. U javobgarlikning eng og'ir turi hisoblangan jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi V bobi "Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar" —, deb nomlanadi. Jinoyat Kodeksining mazkur bobida voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash, bolani chet davlat hududida nazoratsiz qoldirish va ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash haqida va shu kabi jinoyat turlari va ularga qo'llaniladigan jazolar haqida ham keltirib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi 122-moddasida ota-onalar, ularning qonuniy vakillari tomonidan 18 yoshga to'lmagan ya'ni voyaga yetmagan yoxud mehnat qilish qobiliyatiga layoqatsiz deb topilgan shaxslarga moddiy ta'minot berishdan bosh tortish, ya'ni ularni moddiy jihatdan ta'minlash uchun sudning hal qiluv qaroriga yoki sud buyrug'iga binoan undirilishi lozim bo'lgan mablag'ni jami bo'lib ikki oydan ortiq muddat mobaynida to'lamaslik jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarishi haqida belgilab berilgan [4]. O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarida bunday jinoyatning subyekti 18 yoshga to'lgan, aqli raso, sud tomonidan moddiy ta'minot majburiyati yuklangan shaxs hisoblanadi. Qo'shimcha sifatida shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki, ushbu qoida emansipatsiya etilgan shaxslarga ham taalluqlidir. Misol uchun, 17 yoshda oila qurgan shaxslar qonunchilik asosida to'liq muomalaga layoqatli deb topilganligi uchun, garchi 18 yoshga to'lmagan bo'lsa ham o'z farzandlarini moddiy ta'minlashga majburdirlar. Voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz shaxslarga to'lanadigan moddiy ta'minot miqdorlari ham har xil. Xususan, voyaga yetmagan shaxslarga to'lanadigan aliment miqdori amaliyotda ko'pchilik holatlarda aliment to'lovchi shaxslarning oylik ish haqiga va boshqa daromadiga nisbatan ulushlar hisobida, mehnatga layoqatsiz shaxslarga bo'lsa pul bilan to'lanadigan qat'iy summada belgilanishi mumkin.

Yuqoridagi o'rganishlardan kelib chiqib, mazkur jinoyatning o'ziga xos belgilari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

- ✓ jinoyat subyekti moddiy ta'minot yuklatilgan shaxs bo'ladi;
- ✓ shaxsga ilgari ma'muriy preyuditsiya ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Huquqshunos olim M.H.Rustambayevning fikricha bo'yin tovlash deganda, voyaga yetmagan yoxud mehnatga qobiliyatsiz shaxsga moddiy ta'minot berish bo'yicha majburiyatlar bajarilishini rad etishni, shuningdek, ta'minot to'lovchi shaxsning ijro varaqasi bo'yicha ushlab qolinadigan mablag'ni to'lashdan bo'yin tovlash maqsadida oladigan haqiqiy maoshini, har xil daromadlarini yashirishini, ish yoki yashash joyini o'zgartirishini yoxud aynan shu maqsadda mehnatdan bo'yin tovlashi kabilarni tushunishimiz lozim [5. 112].

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 47⁶-moddasida bolani chet davlat hududida nazoratsiz qoldirganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo'lgan bolani ota, ona yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxs yoxud hamrohlik qiluvchi shaxs tomonidan chet davlat hududida nazoratsiz qoldirish, — bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga

sabab bo'ladi. Mazkur huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslarga o'ttiz kunlik muddat ichida bolani O'zbekiston Respublikasiga qaytarish majburiyatini yuklaydi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizday, agar huquqbuzar javobgarlikka tortilib bir yil ichida qaytadan sodir etgan bo'lsa, endi Jinoyat Kodeksi 122¹-moddasi bo'yicha javobgarlikka tortiladi. Jinoyat Kodeksining 122¹-moddasida bolani chet el hududida nazoratsiz qoldirish bugungi kundagi bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Ushbu moddaning ikkinchi, uchinchi qismlarida bolani chet mamlakat hududida nazoratsiz qoldirish jinoyati retsidivist yoki o'ta xavfli retsidivist tomonidan sodir etganlik, badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazganlik yoxud jabrlanuvchining o'lishiga sabab bo'lganlik uchun jazo muddatlari ham ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi 123-moddada mehnatga layoqatsiz va moddiy ta'minotga muhtoj ota-onalarning voyaga yetgan, mehnatga qobiliyatli farzandlari yoxud ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan sudning hal qiluv qaroriga muvofiq undirilishi lozim bo'lgan moddiy ta'minotni ikki oydan ortiq muddat davomida to'lamaganlik harakatlari uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Ushbu jinoiy qilmishni sodir etgan shaxsga uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Aytib o'tilgan insoniylik va adolat prinsiplari mazkur moddaning ikkinchi qismida ham keltirib o'tilgan bo'lib, unga ko'ra moddiy ta'minot berish majburiyati yuklatilgan shaxs aliment majburiyatlari bo'yicha qarzdorlikni to'liq to'lagan bo'lsa, u javobgarlikdan ozod qilinadi.

Oilaga qarshi jinoyatlar jinoyat huquqining muhim bir sohasi sifatida bir qator huquqshunoslar mazkur jinoyatlar haqida o'z fikrlarini bildirishgan.

N. Imomov oilaga qarshi jinoyatlarni nikoh, ota-onalik, farzand tarbiyasi va oilaviy majburiyatlarga zid ravishda sodir etiladigan ijtimoiy xavfli qilmishlar sifatida baholaydi hamda ularning jamiyat ma'naviy poydevoriga salbiy ta'sir ko'rsatishini ham ta'kidlab o'tadi [6. 36].

Huquqshunos olimlardan yana biri B. Ahmedov oilaga qarshi jinoyatlar haqida quyidagicha fikr bildiradi: oilaga qarshi jinoyatlar nikoh-oila munosabatlariga tajovuz qiladi, ularning ijtimoiy xavfiligi jamiyatning axloqiy va ma'naviy barqarorligiga zarar yetkazadi.

Oilaga qarshi jinoyatlar nafaqat O'zbekistonda, balki xalqaro davlatlarda ham jinoyat sifatida e'tirof etiladi. Masalan shunday davlatlardan biri Ispaniya bo'lib, Ispaniya Jinoyat kodeksida oilaga qarshi jinoyatlar o'ziga xos alohida bobda berilgan bo'lib bu bob – "Delitos contra las relaciones familiares" deb ataladi [7]. Mazkur bobning 217-233-moddalarida oilaga qarshi jinoyatlar nazarda tutilgan. 217-219-moddalarda milliy qonunchiligimizdan biroz farq qiladigan darajada ikkinchi akt yoki bekor qilingan nikohni bilib turib bajarish, tug'ilishni yolg'on ko'rsatish, bolani boshqa ota-onadan yoki vakolatli organ ruxsatisiz olib ketish haqida mustahkamlangan bo'lsa, 223-233-moddalarda shaxslarni moddiy va boshqa yordamdan mahrum qilish, ajrim yoki ajrim bo'lganidan keyin aliment to'lovlarini to'xtatib qo'yish, voyaga yetmagan yoki qarovsiz shaxsni oilaviy uy-joyini tark etishga undash, bolani uy-joyini tashlab ketishga undash, oilaviy yordamni ta'minlamaslik kabi qilmishlari uchun javobgarlik belgilangan.

Shaxsning jinoiy mayllari ko'pincha oilada shakllanadi. Shu bois oiladagi jinoyatlarning oldini olish borasidagi maxsus chora-tadbirlar haqida so'z yuritishdan oldin quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini ta'kidlash lozim:

- oila a'zolariga oilaning salbiy ta'siriga barham berish uchun shart-sharoit yaratish;
- muayyan nizolarni hal qilish;
- oilaning ijobiy imkoniyatlaridan foydalanish;
- oila institutidagi ziddiyatlarga chek qo'yish [8. 295].

Bu chora-tadbirlar jinoyatchilikning umumiy darajasini pasaytirishga imkon yaratadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, oila-bu ta'lim-tarbiya oladigan eng dastlabki maskanimizdir. Lekin oilaviy munosabatlarda ham ziddiyatli vaziyatlar yuzaga kelishi natijasida qonunga xilof qilmish hisoblangan huquqbuzarliklar yoxud jinoyatlar sodir etilishi mumkin. Voyaga yetmagan farzandiga yoxud mehnatga layoqatsiz shaxsga, moddiy ta'minotga muhtoj ota-onalariga g'amxo'rlik qilmaslik, ta'minlamaslik, yoinki bolaga e'tiborsizlik qilib chet davlat hududida qarovsiz qoldirish ham jinoiy qilmish sanalib Jinoyat Kodeksida nazarda tutilgan sanksiyalar qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, Ispaniyada oilaga qarshi jinoyatlarning ham milliy qonunchiligimiz bilan bir qancha o'xshashliklari va farqlari mavjud. Buyuk kelajak avlodni tarbiyalash uchun eng avvalo oilaviy munosabatlar mustahkam bo'lishi, ziddiyatlar barham topgan bo'lishi, oilada yuzaga keladigan kelishmovchiliklarning oldini olish joizdir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. 2018-yil 19-20-yanvar. Surxondaryo viloyatidagi bayonatidan. <https://www.xabar.uz/uz/siyosat/prezident-oila-kichik-vatan>
3. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risida Kodeks. 22.09.1994. 47⁴-moddasi. <https://lex.uz/acts/-97664>.
4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. 22.09.1994. <https://lex.uz/docs/-111453>.
5. M.H.Rustambayev. "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksiga sharhlar". Maxsus qism. T. "Adolat". 2016. 112-b.
6. N.Imomov. Oila huquqi. Darslik. — T., 2016. — 36–38-b.
7. Ispaniya Jinoyat Kodeksi. https://www.boe.es/biblioteca_juridica/publicacion.php?id=PUB-DP-2024-118
8. Q.R.Abdurasulova, S.Sh.Utemuratova. Kriminologiya. Darslik. Nókis. 2017. 295-b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).